



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Maxsus son.

Tahrir hay'ati:

- Baxtiyor SAIDOV
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONOULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zukumor MIRZAYEVA
Qo'zqo'yo YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliyta MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@ramail.uz
web-sayt: www.tilvadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olinadi, deb izohlanishi shart.

Jurnaldan nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat maqbuli nazariyasi mavjudi kelmaydigan fikr-mulohazalari hisoblashi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'yilmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Biometroning. 2022.25.06. da topshirildi. O'fset ushida chop etildi. Oq-ov bichimi 60x8418. Shardi bosma taboqi 6,0. «Axlal» garniturasi. 10, 11 kepl. «ECO TEXTILE PRODUCTIONS» MCHJ boshqaruvida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Bayurtima Adadi 200 nusxa. Bahosi kelishilgan tarafdin.

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

jurnali

REPUBLIKANING ILMIY-METODIK JURNALI

1991-yildan chiqq boshlagan

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПЕРИОДАВАЖИТЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE

TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

G'afurjon Muxamedov. Toshkent viloyat chirchiq davlat pedagogika instituti – 5 yoshda 2

DOLZARB MASALA

Rayxon Rasulova. Og'zaki va yozma nutq – komillik belgisi
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR 7

Feruz Murodova. Maktab adabiyot darslarida hikoya janri o'qitish texnologiyasi 7
Sarvinoz Berdiyeva. O'quvchilarda matn bilan ishlash va tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari 8
Ruxsora Murodova. ona tili ta'limida nostandart testlardan foydalanish usullari 11
Tojixon Sahitova. Maqolalar badiiyatiga doir 12
Sirdaryoxon O'tanova. Adabiy qahramonlar ruhiyati va tasvir musharakligi 14

TAHLIL

Mohizar No'monova. Hamid Olimjon lirikasida epitetning semantik-stilistik xususiyatlari 16
Gulmira Komilova. Tilshunoslikda lingvokulturologiya 18
Nilufar Ataqulova. O'tkir Hoshimov ijodida arab yaratish mahorati 20
Umida Shermatova. Tabiiqlashtirilgan adabiyot ta'limida binar nu'uz a metodi 22
O'tkir Islamov, Gulzoda Bekmuratova. Madaniy nutq – behaho ma'naviy boylik 22
Adiba Davlatova. So'zning asl ma'nosini – shoirning asl dardi 24
Nodira Xoliqova, Humoyun Umaraliyev. Komil inson masalasi – jamiyat masalasi 28
Iroda Xoliqulova. Hamza Hakimzoda niyoziyning dramalarida monologik nutqning o'rni 30
Nizomiddin Bozorov, Ulug'oy Chorfiyeva. Dramatik asarlarda makon, zamon va badiiy tilning komparativ qiyralari 32
Bahoroy Eshmanova. Ingliz va o'zbek maqollarning kognitiv-epizod tahlili 34
Ziyoda Usmonova. Ta'lim tizimiga oid kutuzatish, tahlillar va takliflar 36
Gulshodaxon Tojiboyeva. Abdulla Qodiriy va zamondoshlari ijodida ayollar obrazining musharakat jihatlari 38
Emina Achilova. O'tkir Hoshimovning "urushning so'nggi qurboni" hikoyasida psixologik tasvir 40
Musajjan Tadjibayev. Germaniyatilda psixologik talqin muammolari 42

TADQIQOT

Hoshimjon Quchoqorov. Tarjimon, tarjima va matn 44
Nafisa Rahmanova. Nizomiy va Navoiyning ota-o'g'il munosabatlari haqidagi qarashlari 46
Laylo Xasanova. Navoiy lirikasida obrazni ifoda etishda ritm va mazmun uyg'unligi 49
Arofotay Muynidina. O'zbek milliy uyg'unlash adabiyoti vakillari ijodida muvaffaqiyatli san'ati 51
Mohibul Mavlonova. "Farhod va Shirin" dostonida shopur obraz talqini 53
Nizomiddin Bozorov, Mohira Hayitova. Samiyatinyan teran badiiy ifodasi 55
Ra'no Xayrullayeva. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish, nutqning o'stirish yo'llari va vazifalari 58
Nafisa Muratova. Maktabda tarixiy so'zlar mavzusini o'qitishning o'ziga xos usullari 60
Abdushukur Shofqorov. "O'zbek tilining izohli lug'ati" dagi dialektal so'zlar 63
Rahmatilla Norbekov. Mung'lig' qalbar kuychisi 65

KICHIK TADQIQOT

Qodirjon Mo'yidinov. Sud nutqi lekksiasidagi o'zlashma so'zlar 67
Shahnoza Azimjonova. Akademik Naim Karimovning ijodkor portretini tarixiy jarayon zaminida o'rganish mahorati 69
Xosiyat Abdug'ahhorova. Mustaqil so'z turkumlarida antisemik munosabatlarning ifodalanishi 70
Dildora Yorbulova. Hamza Hakimzoda niyoziyning ashularida xotin-qizlar mavzusi 72
Aziza Avezova. Alisher Navoiy "turkiylar choseri" mi? 73
Nodira Xoliqova. Millat va jamiyatning bodiy in'ikosi 76
Hikmat Hikmatov. Adabiyot darsida yangi – "xamsa" metodidan foydalanish usullari 78
Xumoyun Umaraliyev. Hamza Hakimzoda Niyoziyning she'riyatida erk va bilim talqini 80

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashridir.

ti kitobxon tasavvurida tragik hissiyot, tushkun kayfiyat uyg'otadi. Sentimental kayfiyat quyuqlik lirik ifodaning ustuvorligini bo'rttiradi.

Inson ruhiy dunyosining adabiyotdagi tasviri, ifodasi qonuniyatlarini tekshirish bugunning dolzarb ilmiy-estetik muammosi hisoblanadi. Kuzatishlar ko'rsatadiki, inson ruhiyati, ichki olamidagi o'ziga xoslik hamisha ham tashqi dunyoga bog'liq bo'lavermaydi. Inson ko'nglida kechayotgan hissiyotlar, orzu-maqсадlar, intilishlar atrofda muhitga kamdan kam holatlarda to'g'ri keladi. To'g'ri, inson ruhiyatidagi tadrjiylik tashqi muhit vositasida yuz beradi. Odamning ruhiy tushkunligi ham,

ko'tarinkiligi ham ijtimoiy muhit ta'sirida yuzaga keladi. Ko'pincha, insonning o'zi o'z ruhiy holatini to'g'ri tushunish yoki izohlashga ojizlik qiladi.

O'tkir Hoshimov hikoyalari qahramonlar ruhiyatidagi talotumlar, asosan, ijtimoiy turmush ta'sirida yuzaga kelganligi aks ettirilgan. O'tkir Hoshimov hikoyalari qahramonlari ko'proq kuchli ruhiy g'alayonlar, cheksiz ma'naviy tanazzullar iskanjasi aks ettiriladi. Asarlarida hayotning achchiq zarbalari, turmushning ayovsiz sinovlari natijasida shaxsi, ma'naviy olami imtihondan o'tayotgan odamlar hayotini ko'rsatish orqali adib milliy adabiyotda qahramonlar silsilasini yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – 27-bet.
2. Sharafiddin O. El ardog'idagi adib. "Ikki eshik orasi" romanining 7-nashriga so'nggi so'z. – Toshkent: Fan, 2000. – 136-bet.
3. Дидро Д. Избранные произведения. – Москва: Государственное издательство Художественной литературы, 1951. – С.206.
4. Hoshimov O'. Tanlangan asarlar IV. Roman, qissa, hikoyalar, hajviyalar, tarjimalar, o'yalar. – Toshkent: Sharq, 2011.

Musajan TADJIBAYEV,

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti dotsenti

GERMENEVTIKADA PSIXOLOGIK TALQIN MUAMMOLARI

Germenevtikaning muhim in'ikosi va ahamiyati shundan iboratki, u dunyo, borlik, hayot o'tkinchligini, uning qayta va qayta yangi o'zgarishlarga to'la ekanligini o'qitish, tushuntirish, isbotlash va uning metodlarini yaratish barobarida insonga optimizm, cheksiz umidvorlik baxsh etadi. U barchaga har bir kun, har bir unda buyuk o'zgarishlar, yangilanishlar kutib yashashni o'rganishni uqtiradi.

Germenevtika uchun butun borlik matndan iborat va matn – cheksiz potensial manba. U xuddi o'zida cheksiz energiya, g'oya, fikr va, binobarin, cheksiz sirlarni mujassam qilgan borliqning aksidan iborat bo'ladi. Har bir tugallangan matn – o'zicha bir dunyo. Vaholanki, borliqdagi har mavjudot va narsa avtonom matn demakdir. Bu – matn fenomenologiyasi.

Agar biror matnни rudaga qiyoslasak, inson eritish orqali undan metall oladi. Bir tonna metall dan yuz ming xil material yasash mumkin bo'ladi. Bu detallar agregatga aylanib ishga tushganda, millionlab narsa-hodisalarini yasaydi, faoliyat bajaradi. Bu hodisa cheksiz, bir-oq barcha cheksizliklarning manbani o'sha ruda bo'lib qolaveradi. Toki barcha detallar bir kun korroziyaga uchrab, yana o'sha rudaga, tuproqqa aylanadi.

Biz matnning potensial kuchini e'tirof etdik, unga ko'ra so'z vositasida yaratilgan matn muttasil harakatda. Zero so'z matni xuddi ko'mir yoki ruda olov, energiya chiqargani kabi o'zidan muttasil rango-rang g'oyalarni yulqirantirib turadi. Bu yulqin butun insoniyatga yuqadi.

Vaholanki, bunday holatda har bir inson undan o'zicha yangi, o'ziga xos g'oya ibtidosini asoslantirishi mumkin. Germenevtikada sillogizmning qudrati, eng avvalo, shu yerda. Bir g'oya minglab, balki millionlab g'oyalarga turtki, ulgi beradiki, bu xuddi Nyutonning butun olam tortishish qonunini yoki olovdan energiya olish, elektr toki yoki velosipedning kashf qilinishini eslatadi. Zotan mana shunday hozirgi davrda oddiy hodisaga aylangan narsalar bir vaqtlar insoniyatning borlik haqidagi dunyoqarashi tamomila o'zgarishiga olib kelgan. Minglab yuraklarda olovlangan g'oya ularga cheksiz optimizm, kelajakka, kelajak baxtga ishonch tuyg'usini uyg'otadi va uni olovlantiradi.

Nazaringizda xuddi sizni keyingi muyulishda yangi bir inson siymosidagi yoki yangi bir voqea mundarijasidagi ulkan baxt kutib turganga o'xshaydi, tuyuladi. Uni siz aniq ko'rganday bo'lasiz, uning borligini his qilasiz, ich-ichingizdan tuyasiz. Xuddi shu holat sizga ulkan, bir umrlik baxtga ishonch tuyg'usini taqdim qiladi. Mana shu paytda siz turmushning mayda iker-chikirlarini unutasiz, atrofga qalb va idrok shu'la sochgan ulkan tushunish yulqiniga yangi nazar bilan qaraysiz. Bu nazar sizning qalbingizda ulkan go'zallik yulqini bilan burkandir; hamma narsa sizga go'zal, mutanosib, sizning didingizga parallel muvofiq, ma'noli, mazmunli, eng muhimi sehri bo'lib ko'rinadi va siz tomonga nur yo'llaydi. Bu nur xuddi sizning olingizda yangi, jannatiy baxt dunyosini ochganday bo'ladi. Sizni u yerda baxtli, sizni

muhabbat bilan intiqib kutayotgan odamlar qarshilaydi va siz o'zingiz istagan dunyoga kelganday bo'lasiz va murod-u maqsadingizga yetasiz. Mana germenevtik tushunishning hosilasi. Bularning hammasi zaminida sizni ilhomlantirgan, to'liqlantirgan, qalbingizni ehtiros-ga burkagan o'sha matn siymosidagi yo'lqin turadi.

Badiiy ijod, badiiy adabiyot va umuman san'at, tarixiy osori-atiqalar vositasida ham odamlar o'sha davrga qaytib boradilar. O'tmishning buyuk belirlitistikasi shundaki, unda hamma narsa baxtli yakun topadi. Shu bois o'tmish odamga kundalik hayot mundarijasining so'ngi sahifalarini o'qish yoki o'qiy olish uchun makon va zamon transformatsiyasini ishga soladi, harakatlantiradi. Bunday transformatsiya sabr va qanoatning buyuk hikmat ekanligini san'at bilan isbotlab beradi. Siz bugungi mehnatning kelajak hosilasini hozirda tasavvurda ko'rib turganday bo'lasiz. Ular xuddi o'sha tarixiy osori-atiqalar kabi sizning tasavvurizganday joy olib turadi. Bu tasavvur yoqlinlanib sizning aql-farosatingizni to'ldiradi. Osori-atiqalar pragmatizmi ham aynan mana shunda. Hozirda badiiy adabiyot faqatgina ko'ngilochar orgazm yoki chiroyli hayotga undovchi voluntarizm bilan chegaralanmaydi. Balki u pragmatik g'oyalari bilan tasavvurda yangi dunyo yaratish yoki yangi dunyoning, kelajak dunyoning odamlarga o'zlar uchun mos va xos baxtli dunyoning shtrixlarini chizishga makon yaratadi. Aynan shu holat germenevtik pragmatizmdir.

Masalaning ikkinchi tomoni ko'lanka rol bajaradigan tasavvurda yoki ko'lanka nazariyasining bazisi hisoblanadigan tasavvur borligida yaratiladigan voqea-hodisalarning nima, qanday, qanaqa yoki qanchaligida. Yoki keyingisi esa tasavvurdagi ko'lanka yoki ko'lankalarning obrazliyi muammosidir. Bu o'rinda "obraz" termini hozircha shartli, chunki biz hali u yerda nimalar borligini yo'q qanday, qanaqa, qancha va nima qanday qilinishini bilmaymiz. Biz faqat bilamizki, insonda cheksiz tasavvur olami bor va unda ko'lanka yoki ko'lankalar olami hukmronlik qiladi. Ko'lankada nur borki, soya bor nazariyasidan kelib chiqib, har bir nurning mohiyati haqida gapiramiz. Mohiyat asos bo'lsa, uning insondagi aksi ahamiyatni yaratadi. Ahamiyat esa, bizni yana pragmatizmga olib keladi. Bizni o'rab turgan borliqning tasavvurdagi ko'lankasi ibtidosida o'sha pragmatizm yotadiki, inson har bir voqea-hodisani ahamiyatlilik notadayi nazaridan baholaydi.

Biz allaqanday voqea-hodisalarni his qilamiz, ammo tasavvur qila olmaymiz. Chunki hali fantaziya asos yo'q, material yo'q. Mohiyat yo'q, biroq nimani mohiyat yoki mohiyatni boshqa nima deb atash mumkin, olama?! Hujayrani tirik organizmlarda yoki anorganik olamda atom, neytron, pozitron va hokazo nomlar bilan atash mumkin. Vaholanki, marksizm bunday cheksizlikni materiyang ko'rinishlari deb atagan va bu masalaga shunday nuqta qo'yg'an edi.

Biroq borliqning materialistik holati uning san'at namunasi ekanligini inkor qilmaydi. Bu masalada mohiyatni vulgar tushunish bu muammodagi eng keng tarqalgan va muntazam takrorlanadigan hodisa. Zotan aynan vulgarizm borliqning sillogizm va transformatsiyadagi paradigmatik san'atini inkor qilibgina qolmay, borliqning bu imkoniyatlarini avonturaga aylantiradi, oxir-oqibat

fashizmdek jirkanch siyosatni yaratadi. Borliqning materialistik holatini vulgar tushunishning tipik namunasini, ya'ni hamma narsa bor va hamma narsa faqat bor narsada birlashadi, vizual, fizik hajmi atribut va ahamiyatli narsa materiya deb nomlanadi. Xuddi shu holat pragmatik vulgarizm uchun generator vazifasini o'taydi. Unda hamma narsa oddiy manfaatdorlikka taqalib qoladi.

Biroq biz fantaziya uchun maydon va makon yaratarkan ekanmiz, o'sha fantaziyaning nimalarda tasavvurga kirita olishimiz mumkin, boshqacha aytganda, tasavvur fantaziyaning nimalarda voqea-hodisa yaratadi, degan savol-muammo ko'ndalang qo'yiladi.

Biz bu savolga ko'lanka deb javob beramiz. Bas, fantaziya san'at ekan, fantaziyaning ibtidosi va qoroli bu – ko'lanka. Ko'lanka moddiy hodisa emas, chunki u faqat tasavvurda yashaydi. Uni soya deb ham atash mumkin. Yodingizda bo'lsa, "Alovidinning sehirli chirog'i" filmida soylar shahri yoki shaharlar soyasi haqida gap ketadi. Zotan butun voqea-hodisalar kichkina katalak ichida fantaziya o'laroq tasavvurda yaratiladi, ko'lankalar holatida namoyon bo'ladi. Tasavvurda ham shunaqa, ijodkor – u xoh yozuvchi, xoh o'quvchi-kitobxon bo'lsin, barcha voqea-hodisalarni ko'lanka sifatida, soya sifatida tasavvurda shakllantiradi, vaholanki bu soylar faqat tasavvurdagina mavjud bo'ladi.

Yana shu narsani unutmashlik lozimki, bir xil so'zlarning terminga aylanishi qandaydir tushunchalarning ma'nolar gravitatsiyasi kengayishining generatsiyasi qilinishiga olib keladi. Bu o'rinda aura hodisasining ahamiyati cheksiz. Har qanday jiro, san'at asarining ijrosi aurasiz yetarli effekt bermaydi. Zotan aura jamiyat, hech bo'lmaganda auditoriyaniyotg'ular paradigmasida ustivorlik qiladi, aynan shu hol san'at asarining bor poetik imkoniyatini namoyon qilish uchun maydon yaratadi.

Ko'lanka san'ati ma'lum aura maydonida turli tizimda shakllanadi: yorqin rangli ko'lankalar, fayzli ko'lankalar, nursiz ko'lankalar va boshqa holat yoki shakllarda. Bu shakllar ko'lankalardan obrazlar yaratish uchun imkon beradi, ya'ni butun borliqni biz hissiyotlar, hissiy obrazlarni esa, ko'lankalar bilan boshqarib boramiz. Aynan shu hodisa, san'atda insoniyatga sentimentalizm eshiklarini ochadi. Armon, orzu, maqsad, rashk azobi, yolg'izlik tuyg'usi, ishonchsizlik kechinmalari, ishonchsiz ertangi kun, eng avvalo, kundalik hayotda o'z o'midan qoniqmaslik, kundalik hayotdan horizolik – bularning hammasi insonni zildek yelkasiidan bosa boshlaydi. Natijada inson chuqur pessimizmga kirishib ketadi, bora-bora sulqasd yo'q uzlatni istab qoladi. Bular sentimentalizm psixologiyasining uchqunlari, xolos.

Biz yashab turgan hozirgi zamonaviy texnologiyalar arenasini ham aynan fantaziyaning mevasi emasmi? Alloh dilga solgan har qanday fantaziya, to'qima yoki xayolot shakllidagi voqea-hodisa borliqda qaysidir holatda mavjudki, u insonga, uning xayoliga kelgan, dilga solingan. Biz esa, inson avval tasavvurda ko'ramiz yoki qalban ma'nosini ferosatda his qilamiz, keyin esa, yaratamiz. Bu – ko'lanka san'atining mevasi. Bu xuddi haligi qora tuyukdan dunyoning yaratilishidek paydo bo'ladi.

San'at asarlari ham, ularning g'oyasi ham ilohiy nur kabi jilvalanadi. Germenevtikada esa, biz ularni tush-unamiz va ijroga aylantiramiz, xolos. Ko'lankalar jilva-lanishi, ularning paydo bo'lishi, yaratilishi uchun aura kerak, ma'lum aura insonni ruhlantiradi, ilhomlantiradi, unda buyuk yaratuvchanlik hissini uyg'otadi. Bunday jarayonning ilk mevasi she'r bo'lishi mumkin. Chunki she'rda inson ruhan his qila olgan, ammo aniq ko'ra ol-magan ko'lankalarini so'zga solishga intiladi.

Materialistik borliqning biz bilgan, his qilgan va tasavvur qilgan mavhum aksi ko'lanka dunyosiga ayla-nadi va u soylar orqali tasavvurda harakatlanadi. Ko'lanka bu – ruhiy dunyo, undagi soylar – obrazlar. Biz bunday ko'lanka dunyosini tasavvur orqali ko'ramiz, sezamiz. Ko'lanka dunyosining o'ziga xos eng muhim holati shuki, unda hamma narsa, butun dunyo bir va-qtida, bir joyda sening oldingda mavjud bo'lib ko'rinadi. Unda zamon va makonning ahamiyati yo'q. Sen o'zing bilgan-bilmagan, ko'rgan-ko'rmagan Alloh yaratgan har qanday odam yoki mavjudotni yoningda, bir vaqtning o'zida ko'rib turgandek his qilasan. Muhimi aynan mana shu dunyoda biz o'zimiz mutlaq hukmronmiz. Bunday mutlaq hukmronlik shoirga, o'quvchiga cheksiz qudrat baxsh etadi.

Uning ruhiy isyoni mana shu tasavvurdagi ko'lanka saftanatida uyg'onadi, jumbushga keladi, uning ruhiy soyasini harakatga keltiradi. U – cheksiz qudrat sohibi, u – jasur, u – mard, u – oljanob, u – saxiy, u – tugal

go'zallik siymosi, u – ezigulik taratuvchisi, u – komillik dunyosining yorqin namoyandasi. Va umuman, barcha ijobiy va mental psixologiya qirralari unda mujassam. Ko'lanka san'ati, ko'lanka dunyosining o'quvchisi – kitobxonga yetkazadigan, uning borlig'ini tarqatmayiya qiladigan eng birinchi kuch mana shunda.

Yodingizda bo'lsa, "Oq kema" asarining qahramoni mana shunday hissiyotlar og'ushida yashaydi. U inson-ning bir umr baxtli bo'lishi uchun yolg'iz O'rozalini tiyib qo'yishning o'zi yetarli deb o'ylaydi. Chunki u bechoran-ing butun baxti shu kichkina bir kordondagi olti-yetti kishining taqdiri bilan uzviy bog'liq. Uning baxti, taqdiri, o'tmishi, kelajagi va, hattoki, fojiasi ham mana shu yer-dagi muhit bilan bog'liq ediki, uning nazarida baliqq aylanib dengizdagi kemaga yetib olishning o'zayoq na-faqaq uning, balki butun insoniyatning taqdirini o'zgar-tirib yuboradi, deb orzu qiladi.

Ko'lanka san'ati namunalarini biz o'zbek mumtoz adabiyotining har qanday yetuk namunalarida uchrat-amiz. Muallif o'z qalbi tasviri bayonida so'z vositasida betakror rangli olam yaratadi. Bu olam tavsiyida shoir – ijodkorning maqsadi chiroyli, yorqin, jarangdor, jimjimador so'zlar aytib o'quvchining lug'at boyligini oshirish emas, balki mana shu rango-rang kalimalar orqali uning tasavvurini yoqish hamda tasavvur orqali hali unga no-ma'lum muhtasham dunyoni kashf etishga yo'l ochish va inson uchun haqiqiy barkamol hayotning chizgarilini muallif qalbidan kitobxon qalbiga ko'chirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тиселтон Э. Герменевтика. – Минск, 2008.
2. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent, 1985.
3. Hojiahmedov A. Mumtoz so'z san'ati. – Toshkent, 1998.
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2002.
5. Халишев В.А. Теория литературы. – Москва, 2008.

Hoshimjon QUCHQOROV,

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

TARJIMON, TARJIMA VA MATN

(tarjima nazariyasi va amaliyoti xususida ba'zi fikr-mulohazalar)

Annottatsiya. Maqolada yozma va og'zaki tarjimaning o'ziga xos xususiyatlarini haqida fikrlar berilgan. Tarjima turlari va uning tasnifi, tarjimaning kognitiv amallar natijasi ekanligi, rasmiy va norasmiy tarjima xususiyatida nazariy qarashlar fodalangan.

Shuningdek, tarjimonlik, tarjimon-ning kasbiy mahorati, malakasi va imkoniyatlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: til, tarjimon, matn, yozma tarjima, og'zaki tarjima, badiiy tarjima, sinxron tarjima, muqobilik, tarjimonning kasbiy mahorati.

Annotation. The article provides insights into the specifics of written and oral translation. Types of translation and its classification, the fact that translation is the result of cognitive actions, formal and informal translation, in particular, expressed theoretical views.

There was also talk about translation, the professional skills, qualifications and capabilities of a translator.

Key words: language, translator, text, written translation, interpretation, literary translation, simultaneous translation, alternative, professional skills of the translator.

Аннотация. В статье дается представление о специфике письменного и устного перевода. Виды перевода и его классификация, то, что перевод является результатом познавательных действий, формальный и неформальный перевод, в частности, выраженные теоретические взгляды.

Также речь шла о переводе, профессиональных навыках, квалификации и возможностях переводчика.

Ключевые слова: язык, переводчик, текст, письменный перевод, устный перевод, художественный перевод, синхронный перевод, альтернатива, профессиональные навыки переводчика.